

Moliyaviy Vositachilar Dasturi (FIF) – Fortuna Biznes Mikromoliya Tashkiloti – MKO‘B krediti

Mamlakat:	O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami:	54823
Biznes sektori:	Nodepozitar kredit (nobank)
Sektor turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi:	Moliyaviy muassasa
Loyiha tasdiqlangan sana:	2024-yil 2-aprel
Holati:	Tasdiqlangan
Loyiha nashr qilinish sanasi:	2024-yil 4-aprel

Loyiha tavsifi

O‘zbekistondagi yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda xususiy mikro, kichik va o‘rta biznes korxonalarini (MKO‘B) qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Fortuna Biznes Mikromoliya Tashkiloti” (loyiha nomi: Fortuna Business MFO) foydasiga milliy valyutada 4 million AQSh dollarigacha miqdorda yuqori darajadagi kredit (MKO‘B krediti) taqdim etilmoqda.

Loyiha maqsadlari

MKO‘B krediti “Fortuna Biznes”ga moliyalashtirish bazasini diversifikatsiya qilish va O‘zbekiston viloyatlarida yangi mijozlarni hamda qarz oluvchilarni jalb qilishga e‘tibor qaratgan holda xususiy MKO‘Bga kredit ajratishni kengaytirish imkonini beradi. Kreditning 35 foizigacha qismi ayollar boshchiligidagi tadbirkorlik subyektlarini, 65 foizigacha qismi esa poytaxtda joylashmagan korxonalarni moliyalashtiradi.

Kredit har biri 2 million AQSH dollari miqdoridagi ikkita teng transhdan iborat bo‘ladi. 1-transh kredit shartnomasi imzolanganidan so‘ng taqdim etiladi, 2-transh esa faqat Bankning ixtiyoriga ko‘ra, boshqaruv kengashi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Berilayotgan kredit YTTBning O‘zbekiston bo‘yicha qabul qilingan Mamlakat Strategiyasiga muvofiq KO‘Bning iqtisodiyotdagi rolini ularning moliyaviy resurslardan foydalanishini oshirish va salohiyatini kengaytirish orqali kuchaytirish maqsadiga mos keladi.

O'tish davri ta'siri

ETI (Kutilayotgan O'tish Davri Ta'sirining bahosi): 69

Ushbu loyiha YTTBning O'zbekistondagi mikromoliya sektoridagi birinchi loyihasi bo'lib, MKO'B krediti mahalliy mijozlar va yangi mijozlarni jalb qilishga e'tibor qaratgan holda kam xizmat ko'rsatilayotgan bozor segmentlari uchun moliyaviy inklyuzivlik orqali Inklyuziv O'tish Davri Ta'siri sifatiga, shuningdek, "Fortuna Biznes"ning MKO'B portfelini kengaytirish orqali Raqobatbardosh O'tish Davri Ta'siri sifatiga hissa qo'shadi.

Mijoz haqida ma'lumot

"FORTUNA BIZNES MIKROMOLIYA TASHKILOTI" MChJ

"Fortuna Biznes" Farg'ona viloyatining Farg'ona shahrida tashkil etilgan va 2018-yildan buyon faoliyat yuritayotgan xususiy mikromoliya tashkilotidir (MMT). MMT O'zbekistonning olti viloyatida 11-filiallari orqali mahalliy tadbirkorlar va MKO'Blarga kredit ajratadi.

YTTBning moliyaviy xulosasi

4,000,000.00 AQSh dollari

Moliyaviy vositachilar dasturi (FIF) doirasida 4 million AQSh dollari miqdorigacha bo'lgan 12 oylik imtiyozli davri mavjud, ta'minotsiz, ikki yarim yillik kredit. Kredit (har biri 2 million dollardan) ikkita teng transhda sintetik milliy valyutada (o'zbek so'mida) beriladi.

Loyihaning umumiy qiymati

4,000,000.00 AQSh dollari

Ekologik va ijtimoiy xulosa

Loyiha (2019-yilgi Ekologik va Ijtimoiy Siyosatga muvofiq) Moliyaviy muassasa toifasiga kiritilgan: "Fortuna Biznes" yangi mijoz bo'lib, YTTBning 2-, 4- va 9-Faoliyat talablariga (Performance Requirement) rioya qilishi, shuningdek, moliyaviy institutlar uchun taalluqli bo'lgan Ekologik va Ijtimoiy (E&I) protseduralarni amalga oshirishi va rioya qilishi talab qilinadi. "Fortuna Biznes" tegishli E&I ekspertiza anketasini to'ldirilib, YTTBning Ekologik va ijtimoiy departamentiga topshirdi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (EIE) Fortuna Biznes mijozlariga nisbatan qo'llovchi Ekologik va ijtimoiy so'rovnoma va Fortuna Biznesning atrof-muhit, mehnat va kredit siyosatlarini o'z ichiga olgan Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini (EIBT) o'rganib chiqishdan iborat bo'ldi. Fortuna Biznesning EIB tizimining ko'p qismi 9-Faoliyat talabiga (FT) muvofiq keladi. EIB tizimi to'laqonli muvofiqlikka 2019-yilgi EIS va YTTBning korporativ, KO'B hamda mikro kreditlar uchun ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish tartib-qoidalariga muvofiq (tegishli) o'zgarishlarni, jumladan kreditlashdan istisno faoliyatlar ro'yxatini ham yangilash orqali keltiriladi. "Fortuna Biznes", shuningdek, FT-2ga muvofiq bo'lish uchun o'z salohiyatini tegishli ravishda o'stirishi, shu jumladan o'zining Xodimlarni boshqarish tartib-qoidalarini 2019-yilgi EIS bilan muvofiqlashtirish orqali yangilashi kerak bo'ladi. "Fortuna Biznes" YTTBning moliyaviy institutlar uchun ishlab chiqarilgan eLearning treningini o'tash uchun tegishli E&Iga mas'ul xodimlarni tayinlashi kerak bo'ladi. "Fortuna Biznes", shuningdek, amaldagi Faoliyat talablariga muvofiqligi va yil davomida yuzaga keladigan har qanday boshqa E&I masalalar bo'yicha Bankga yillik ekologik va ijtimoiy hisobotlarni taqdim etishi shart. "Fortuna Biznes" orqali moliyalashtiriladigan sub-qarz oluvchilar milliy

ekologik, sog'liqni saqlash, xavfsizlik va mehnat (ESSXM) talablariga rioya qilishlari lozim.

Texnik hamkorlik

“Fortuna Biznes” “Markaziy Osiyo uchun Mintaqaviy Kichik Biznes Dasturi” (MO MKBD, inglizchada CA RSBP) doirasidagi texnik hamkorlik yordamidan foydalanadi va treningdan iborat onlayn platformadan foydalanib, har yili tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida qatnashadi. MO MKB dasturi Yevropa Ittifoqi: Markaziy Osiyoda barqaror xususiy sektor (IFCA III) dasturi tomonidan moliyalashtiriladi.

“Fortuna Biznes”, o'z mijoz qarz oluvchilarga taklif qilinadigan nomoliyaviy xizmatlardan ham manfaatdordir. Ushbu xizmatlar YTTBning Kichik biznesga ta'sir jamg'armasi (SBIF) orqali moliyalashtiriladigan “Kichik biznes uchun maslahatlar” dasturi doirasida amalga oshiriladi. Ushbu jamg'armaga hissa qo'shuvchilar qatoriga Italiya, Yaponiya, Koreya, Lyuksemburg, Norvegiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Tayvan Biznes-YTTB texnik hamkorlik jamg'armasi va AQSh kiradi.

Loyiha ayollarning moliyaviy ko'makdan foydalanishdagi qiyinchiliklarini yanada kuchaytiruvchi tasodifiy to'siqlarni hal qilish uchun YTTB aksiyadorlari maxsus jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladigan tegishli (“Kredit berishda ongsiz tarafkashlikdan va gender stereotiplaridan xabardorlikni shakllantirish” nomli) texnik hamkorlik komponentidan manfaat ko'radi. Mijozning kredit mutaxassislariga ixtiyoriy ravishda ongsiz tarafkashlik va gender stereotiplari qanday qilib moliyaviy institutning rentabelligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan suboptimal kredit qarorlariga sabab bo'lishi mumkinligi to'g'risida xabardorlikni shakllantirish uchun onlayn treninglar o'tkaziladi.

Notexnik hamkorlik: Kredit YTTBning KO'B uchun mahalliy valyuta maxsus jamg'armasi tomonidan moliyalashtiriladigan KO'B Mahalliy valyuta dasturi doirasida YTTB portfeli darajasida 12,5%ga teng birinchi zarar xavfini qoplash mexanizmidan foydalanishi mumkin.

Qo'shimchalilik

Taklif etilayotgan MKO'B kreditiga qo'shimchalilik “Fortuna Biznes”ga bozorda mavjud bo'lmagan uzoq muddatli moliyalashtirish hamda mahalliy hududiy MKO'Blar uchun cheklangan moliyalashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Qo'shimchalilikka quyidagilar orqali erishiladi:

Moliyaviy tuzilma: YTTB hozirgi kunda bozordagi boshqa tijorat manbalarida mavjud bo'lmagan uzoq muddatli moliyalashtirishni taklif qiladi.

Standartlarni o'rnatish: sub-qarz oluvchilar uchun aniq belgilangan muvofiqlik mezonlari, shuningdek, YTTBning ekologik va ijtimoiy standartlari, shartnomalari hamda hisobot talablariga muvofiqlik.

Bilim, innovatsiya va salohiyatni oshirish: YTTB loyiha maqsadlarini o'z vaqtida amalga oshirish uchun muhim bo'lgan tajriba, innovatsiyalar, bilim va/yoki imkoniyatlarni taqdim etadi, jumladan, CA RSBP Texnik Hamkorligi orqali seminarlar, onlayn mashg'ulotlar va platformaga asoslangan treninglar bilan mijozning salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Gender masalasini yoyish: O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada yaxshilash uchun kreditning 35 foizigacha qismi ayollar boshchiligidagi tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Kompaniyadagi aloqa kontakti

Elyorbek Mamatazizov

e.mamatazizov@fortunabiznes.uz

+998 73 244-40-00

<https://fortunabiznes.uz>

Fortuna Biznes Mikrokredit Tashkiloti MChJ Farg'ona shahri, B. Marg'inoniy ko'chasi, 12-bino, pochta indeksi: 150100

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#) dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmlarni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki

baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaaddor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.